

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Toychibaeva Mohisanam Sobirovna,

Fan va texnologiyalar universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi 4/25-guruh talabasi

e-mail. tmohisanam@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Unda raqamli transformatsiyaning strategik asoslari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining iqtisodiyotdagi ulushi, IT Park faoliyati, raqamli tadbirkorlik, eksport salohiyati hamda raqamli inklyuziya masalalari yoritilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning o‘shish omillari, mavjud muammolari va istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlari ochib berilgan hamda ularning milliy taraqqiyotdagi ahamiyati asoslab ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, IT Park, raqamli tadbirkorlik, raqamli inklyuziya, iqtisodiy rivojlanish

Abstract. This article scientifically analyzes the development trends of the digital economy in Uzbekistan. It examines the strategic foundations of digital transformation, the share of the information and communication technologies sector in the economy, the activities of IT Park, digital entrepreneurship, export potential, and issues of digital inclusion. It also reveals the growth factors of the digital economy, its existing problems, and priority areas for the future, and substantiates their significance in national development.

Keywords: digital economy, digital transformation, information and communication technologies, IT Park, digital entrepreneurship, digital inclusion, economic development

Аннотация. В данной статье научно проанализированы тенденции развития цифровой экономики в Узбекистане. Освещены стратегические основы цифровой трансформации, доля сферы информационно-коммуникационных технологий в экономике, деятельность IT Park, цифровое предпринимательство, экспортный потенциал, а также вопросы цифровой инклюзии. Также раскрыты факторы роста цифровой экономики, существующие проблемы и приоритетные направления на перспективу, а их значение в национальном развитии научно обосновано.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровая трансформация, информационно-коммуникационные технологии, IT Park, цифровое предпринимательство, цифровая инклюзия, экономическое развитие

Kirish. XXI asr iqtisodiyotining eng muhim belgilaridan biri – ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, boshqaruv va iste‘mol jarayonlarining tobora chuqur raqamlashtirilayotganidir. Endilikda iqtisodiy o‘shishning manbai faqat tabiiy resurslar, xomashyo yoki an‘anaviy sanoat quvvatlari bilan emas, balki ma‘lumotlar bilan ishlash sifati, raqamli infratuzilma holati, dasturiy mahsulotlar yaratish salohiyati, elektron xizmatlar ko‘lami va innovatsion boshqaruv usullari bilan ham belgilanmoqda. Shu jihatdan raqamli iqtisodiyot zamonaviy taraqqiyotning qo‘shimcha sohasi emas, balki uning asosiy drayveriga aylanib bormoqda. O‘zbekiston ham mazkur global jarayondan chetda qolmay, so‘nggi yillarda davlat boshqaruvi, biznes muhiti, xizmatlar sektori, ta‘lim, moliya va hududiy rivojlanishda raqamlashtirishni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida tanladi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga doir siyosat bir necha bosqichda shakllandi. Dastlab, asosiy e’tibor axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini mustahkamlash, internet va mobil aloqani kengaytirish, elektron hukumat platformalarini rivojlantirish va davlat xizmatlarini onlayn shaklga o‘tkazishga qaratildi. Keyinchalik esa bu yondashuv iqtisodiyotning butun tuzilmasini yangilash, raqamli tadbirkorlikni kengaytirish, IT xizmatlari eksportini oshirish, kadrlar tayyorlash va hududlarda yangi raqamli ish o‘rinlarini yaratish kabi masalalarni o‘z ichiga ola boshladi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot O‘zbekistonda alohida texnologik loyiha bo‘lib emas, balki milliy rivojlanish strategiyasining tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Mazkur mavzuning ilmiy dolzarbligi shundaki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning o‘sishi bir vaqtning o‘zida bir necha o‘lchamda namoyon bo‘lmoqda. normativ-huquqiy asoslarning mustahkamlanishi, raqamli infratuzilmaning kengayishi, ICT sektorining YAIMdagi ulushining oshishi, IT Park rezidentlari sonining ortishi, raqamli bandlikning ko‘payishi, eksport geografiasining kengayishi va shu bilan birga, hududlar kesimida raqamli tafovut, raqamli savodxonlik, xususiy sektor faolligi va inklyuzivlik kabi muammolarning saqlanib qolishi. Demak, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish faqat yutuqlarni qayd etish emas, balki o‘shish bilan birga borayotgan strukturaviy muammolarni ham ochib berishni talab etadi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojining institutsional poydevori, avvalo, Prezidentning 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan bog‘liq. Ushbu hujjat mamlakatda raqamli transformatsiyani tizimli ravishda boshlab bergan eng muhim normativ asoslardan biri hisoblanadi. Farmonda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ma’qullandi [1], deb belgilangan. Mazkur iqtibos bevosita shuni anglatadiki, raqamlashtirish masalasi alohida idoraviy tashabbus darajasidan chiqib, davlat miqyosidagi strategik vazifaga aylantirilgan. Bizning fikrimizcha, mazkur hujjatning tarixiy ahamiyati shundaki, u O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga oid faoliyatni tartibsiz va parokanda tashabbuslar yig‘indisidan strategik tizimga aylantirdi. Aynan shu farmondan keyin raqamlashtirishga nisbatan “texnik modernizatsiya” emas, balki “iqtisodiy yangilanish” sifatida qarash kuchaydi.

Keyingi bosqichda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilinib, unda mamlakat taraqqiyotining kengroq maqsadlari belgilandi. Mazkur strategiyada asosiy g‘oyalar qatorida “barqaror iqtisodiy o‘shish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish” [2] vazifasi ham aniq ko‘rsatildi. Bu maqsad raqamli iqtisodiyot masalasini bevosita milliy iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘laydi. Chunki daromadi o‘rtachadan yuqori davlatlar qatoriga kirish uchun mehnat unumdorligi, xizmatlar sifati, boshqaruv tezligi va innovatsion mahsulotlar ulushi oshishi kerak; bu esa raqamli transformatsiyasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bizningcha, “O‘zbekiston – 2030”

strategiyasida raqamlashtirish alohida sektor sifatida emas, balki iqtisodiy o‘shning universal vositasi sifatida ko‘rilgani juda muhim. Bu yondashuv raqamli iqtisodiyotni nafaqat IT sohasi doirasida, balki butun iqtisodiy siyosatning ichki mexanizmi sifatida anglash imkonini beradi.

Muhokama va natijalar. Raqamli iqtisodiyot rivojini baholashda eng muhim mezonlardan biri – axborot va kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining iqtisodiyotdagi ulushidir. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, “2025-yil yanvar–dekabr oylarida mamlakat iqtisodiyotida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (ICT) xizmatlarining ulushi 2,7 foizni tashkil etdi”[3]. Bu ko‘rsatkich hali juda yuqori bo‘lmasa-da, mamlakat iqtisodiy tuzilmasida raqamli xizmatlarning real va o‘sovchi o‘rin egallay boshlaganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning oldingi yillarga nisbatan barqaror ravishda kengayib borayotganini hisobga olsak, bu raqam oddiy statistika emas, balki iqtisodiy transformatsiyaning yo‘nalishini ifodalaydi. Bizning nazarimizda, 2,7 foizlik ulush ikki xil xulosaga olib keladi. Birinchidan, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot endi nazariy shior emas, balki makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda aks etayotgan amaliy haqiqatdir. Ikkinchidan, bu ulush hali yetarli emas va kelgusi bosqichda raqamli xizmatlarni eksport, sanoat, ta’lim va hududiy iqtisodiyot bilan yanada chuqur integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Ayni manbada xizmatlar sektori ichidagi o‘sh sur‘atlari ham berilgan bo‘lib, unda “axborot va kommunikatsiya sohasi 23,9 foizga o‘sdi” [4] degan ko‘rsatkich qayd etilgan. Bu o‘sh sur‘ati raqamli yo‘nalishning xizmatlar sektori ichida eng faol sohalardan biriga aylanganini bildiradi. Boshqacha aytganda, raqamli iqtisodiyot O‘zbekistonda sekin shakllanayotgan emas, balki tez sur‘atda kengayib borayotgan segment sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bizning fikrimizcha, aynan o‘sh sur‘ati ulushning o‘zidan ham muhimroq indikator hisoblanadi. Chunki yuqori o‘sh raqamli segmentning kelajakda yanada katta iqtisodiy vaznga ega bo‘lishidan dalolat beradi. Biroq ushbu o‘shni barqaror saqlash uchun faqat xizmat ko‘rsatish emas, balki mahalliy dasturiy mahsulotlar, platformalar, sun‘iy intellekt yechimlari va eksportbop raqamli xizmatlar ulushini oshirish lozim.

Raqamli iqtisodiyotning haqiqiy hayotiy kuchi, odatda, xususiy sektor va tadbirkorlik muhiti orqali namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan UNDPning 2025-yilgi tadqiqoti muhim ma’lumot beradi. Hisobotda. “O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti sezilarli o‘shni boshdan kechirdi, bunda 2023-yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (ICT) sektori YAIMga 2,1 foiz hissa qo‘shdi. 2024-yilga kelib, axborot va kommunikatsiya sohasida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar soni 10 551 taga yetdi. Sanoat rivojlanishining muhim harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan IT Park hozirda 2 500 dan ortiq rezident kompaniyani birlashtiradi” [5], deb qayd etilgan. Mazkur iqtibos

O‘zbekistonda raqamli tadbirkorlik muhiti kengayib borayotganini, raqamli iqtisodiyotning korporativ bazasi shakllanayotganini va IT Park ushbu jarayonning markaziy institutiga aylanganini ko‘rsatadi. Bizning fikrimizcha, bu yerda eng muhim jihat faqat sonlarning o‘shishi emas, balki institutlashuvdir. Ya’ni O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot endi yakka startaplar yoki alohida kompaniyalar yig‘indisi bo‘lib qolmayapti; u rezidentlik, eksport, inkubatsiya va davlat ko‘magi mexanizmlariga ega bo‘lgan maxsus ekotizimga aylanmoqda. Shu bilan birga, UNDP hisobotida qayd etilgan raqamli savodxonlik, xususiy sektor ishtirokining pastligi va qishloq hududlaridagi tafovut kabi muammolar ham bu o‘shishning bir tekis emasligini ko‘rsatadi.

Raqamli tadbirkorlikning yanada kengayib borayotganini IT Parkning 2025-yilgi rasmiy ma’lumotlari ham tasdiqlaydi. Unga ko‘ra, “Bugungi kunda IT Park Uzbekistan 2 990 dan ortiq a’zo kompaniyani qamrab oladi, ular birgalikda 44 000 dan ziyod ish o‘rni yaratgan va raqamli mahsulotlarni dunyoning 90 ta mamlakatiga eksport qilmoqda” [6]. Bu iqtibos O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti ichki bozor bilan cheklanmay, tashqi bozorlarga ham faol chiqayotganini anglatadi. Ayniqsa, 90 ta mamlakatga eksport qilinayotgani raqamli xizmatlarning xalqaro raqobatbardoshligi shakllanayotganidan dalolat beradi. Bizning fikrimizcha, aynan eksport geografiyasining kengayishi O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotining sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tayotganini ko‘rsatadi. Ichki bozor uchun xizmat ishlab chiqish bir masala, global bozor uchun raqamli mahsulot yoki xizmat taklif qilish esa mutlaqo boshqa darajadagi raqobatni anglatadi. Bu esa kadrlar sifati, til kompetensiyasi, menejment, xalqaro standartlarga mos ishlash va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishni talab etadi.

Raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi faqat poytaxt yoki yirik shaharlarda IT kompaniyalar sonining ko‘payishi bilan cheklanmasligi kerak. Uning haqiqiy samarasi raqamli imkoniyatlarning jamiyatning keng qatlamlariga, ayniqsa yoshlar, ayollar, ishsizlar va hududlardagi aholiga yetib borishi bilan o‘lchanadi. Shu nuqtai nazardan Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha loyihasi muhim metodologik yo‘nalish beradi. Unda loyihaning asosiy maqsadi “Ishsiz ayollar va yoshlarning raqamli iqtisodiyotda ko‘nikmalar hamda bandlik imkoniyatlaridan foydalanish darajasini oshirish orqali raqamli inklyuziyani qo‘llab-quvvatlash” deb belgilangan. [7] Bu yondashuv shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot faqat yuqori texnologiyalar segmenti emas, balki ijtimoiy inklyuziya va bandlik siyosatining ham vositasidir. Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot muvaffaqiyatining haqiqiy mezonini IT Park rezidentlari sonidan ham ko‘ra, raqamli imkoniyatlarning hududlarga qay darajada kirib borgani bilan belgilanadi. Agar raqamli rivojlanish faqat yirik markazlarda

to‘plansa, bu iqtisodiy o‘shishni beradi, ammo ijtimoiy tenglikni kuchaytirmaydi. Shuning uchun raqamli inklyuziya masalasi strategik ustuvorlik bo‘lib qolishi kerak.

O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotga oid siljishlarini xalqaro fon bilan qiyoslaganda ham muayyan ijobiy belgilar ko‘rinadi. ITUning 2025-yilgi ICT Development Index ma’lumotida O‘zbekiston uchun “O‘zbekiston ... 81.7 84.9 86.5 +2%” ko‘rsatkichi berilgan. [8] Bu raqamlar mamlakatning ICT rivojlanishida ijobiy dinamikani anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, O‘zbekiston global raqamli rivojlanish o‘lchovlarida ham asta-sekin yuqorilab bormoqda. Bizning fikrimizcha, xalqaro indekslarda o‘shish ijobiy signal bo‘lsa-da, u yakuniy maqsad emas. Chunki indeks ko‘rsatkichlari infratuzilma va ulanish darajasini yaxshi aks ettiradi, biroq raqamli iqtisodiyotning real sifatini, ya’ni eksport samaradorligi, mahalliy innovatsion mahsulotlar, raqamli mehnat unumdorligi va hududlar bo‘yicha teng taqsimlangan imkoniyatlarni to‘liq ifodalamaydi. Shu bois xalqaro reytinglar qo‘shimcha mezon bo‘lishi mumkin, lekin milliy strategiyada ichki strukturaviy ko‘rsatkichlar hal qiluvchi bo‘lib qoladi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari ijobiy bo‘lsa-da, bu jarayon hali to‘liq muammosiz emas. Birinchidan, raqamli savodxonlik darajasi hududlar va aholi guruhlari bo‘yicha bir xil emas. UNDP hisobotida qishloq joylarda raqamli savodxonlik va internetdan foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha cheklovlar saqlanib qolayotgani ta’kidlangan. Ikkinchidan, xususiy sektor ishtiroki hali barcha yo‘nalishlarda yetarli emas; ayrim raqamli tashabbuslar hanuz davlat markazli modelga tayanmoqda. Uchinchidan, yuqori malakali kadrlar, ayniqsa eksportbop IT xizmatlari, BPO/KPO, sun‘iy intellekt va data analytics yo‘nalishlarida kadrlar bazasini yanada kengaytirish zarur. To‘rtinchidan, raqamli iqtisodiyotning o‘shishi bilan birga kiberxavfsizlik, ma’lumotlar muhofazasi, tartibga solish va raqamli etikaga oid masalalar ham dolzarblashmoqda. Shu bilan birga, istiqbol yo‘nalishlari ham aniq ko‘rinib turibdi. Birinchisi, raqamli infratuzilmani yanada chuqur hududiy lashtirish va qishloq joylarga sifatli ulanishni kengaytirishdir. Ikkinchisi, yoshlar va ayollarni raqamli iqtisodiyot uchun tayyorlashga qaratilgan inklyuziv ta’lim va trening dasturlarini kuchaytirishdir. Uchinchisi, IT Park va unga o‘xshash institutlar orqali eksportbop raqamli xizmatlar, startaplar va innovatsion tadbirkorlikni rag‘batlantirishdir. To‘rtinchisi, davlat xizmatlarining oddiy elektron shakldan aqlli, integratsiyalashgan va foydalanuvchiga qulay ekotizimga aylanishidir. Beshinchisi esa, raqamli iqtisodiyotning sifat jihatdan yangi bosqichi sifatida sun‘iy intellekt, ma’lumotlar iqtisodiyoti va platforma yechimlarini rivojlantirishdir.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari izchil va ko‘p qatlamli xarakterga ega. Bir tomondan, bu jarayon strategik-huquqiy asoslar bilan mustahkamlangan. “Raqamli O‘zbekiston –

2030” va “O‘zbekiston – 2030” kabi hujjatlar raqamlashtirishni milliy taraqqiyotning muhim vositasi sifatida belgilab berdi. Ikkinchi tomondan, statistik ko‘rsatkichlar ham bu o‘shishni tasdiqlamoqda. 2025-yilda ICT xizmatlarining iqtisodiyotdagi ulushi 2,7 foizga yetdi, axborot va kommunikatsiya xizmatlarining o‘shish sur‘ati 23,9 foizni tashkil etdi. Uchinchi tomondan, IT Park, raqamli tadbirkorlik va eksport ko‘rsatkichlari xususiy sektorning raqamli iqtisodiyotdagi roli tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatmoqda.


Biroq ushbu o‘shish bilan birga, muammolar ham mavjud. hududiy tafovut, raqamli savodxonlik darajasining notekisligi, yuqori malakali kadrlar tanqisligi, inklyuzivlik va tartibga solish masalalari hali dolzarb bo‘lib qolmoqda. Demak, O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotining keyingi bosqichi son jihatidan kengayish emas, sifat jihatidan chuqurlashish bosqichi bo‘lishi kerak. Ya’ni raqamli infratuzilmadan raqamli ishlab chiqarishga, elektron xizmatlardan raqamli innovatsiyaga, texnologik modernizatsiyadan inklyuziv va eksportbop iqtisodiy modelga o‘tish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ana shunda raqamli iqtisodiyot O‘zbekistonning nafaqat texnologik, balki umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining barqaror tayanchiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // PF-6079-son, 2020-yil 5-oktabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida // PF-158-son, 2023-yil 11-sentabr.
3. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Gross Domestic Product of the Republic of Uzbekistan. – 2026-yil 26-yanvar. – P. 7.
4. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Gross Domestic Product of the Republic of Uzbekistan. – 2026-yil 26-yanvar. – P. 4.
5. UNDP. Digital Economy of Uzbekistan. The State of Digital Entrepreneurship and Artificial Intelligence. – 2025. – P. 9.
6. IT Park Uzbekistan. GBSF 2025 outcomes. Uzbekistan strengthens its status as an IT hub. – 2025-yil 26-iyul.
7. World Bank. Uzbekistan Digital Inclusion Project (P179108). – 2023. – P. 6.
8. ITU. The ICT Development Index 2025. – 2025. – P. 11.
9. Rasulov, Rustambek. “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta’siri.” «ACTA NUUZ» 1.1.4. 1 (2025). 169-171.
10. Tursunov O., Rasulov R. O. Zamonaviy dasturlash muhitida arifmetik amallarni avtomatlashtirish. # winforms asosida kalkulyator modeli // Академические исследования в современной науке. – 2025. – Т. 4. – №. 19. – С. 23-26.
11. Rasulov R. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta’siri // «ACTA NUUZ». – 2025. – Т. 1. – №. 1.4. 1. – С. 169-171.171.
12. Rasulov R. The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth // Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 48. – С. 124-132.
13. Odilovich, Rasulov Rustambek. “Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505.”

**“XXI ASRDA TARIXIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK
VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR”
XALQARO ILMIIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

14. Odilovich R. R. The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2024. – T. 37. – C. 32-41.
15. Odilovich, Rasulov Rustambek. “Yoshlar bilan ishlash tizimida ma’naviy-mafkuraviy omillarning yoshlar ongiga ta’siri.” International Journal of Scientific Research 2 (2023). 147-152.
16. Rasulov R. Zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarning jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarga bo‘lgan ta’siri //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.12. – C. 176-179.



**UNIVERSITY
OF BUSINESS
AND SCIENCE**